



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 226 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash 10	Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari 14	Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari 19	Dadonova Aziza Tulkunovna
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili 23	Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi 30	Tuksanova Zilola Izatulloyevna
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili 35	Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi 41	Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish 47	Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli 50	Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari 54	Qobilov Voxidjon Zoxidovich
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку 58	Мухамеджанова Римма Рашидовна
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari 66	Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili 70	Sadriddinova Feruza Meliyevna
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish 75	Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar 80	Qudratov O'ktam G'ofurovich
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari 85	Tursunov Xusniddin Isomovich
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari 88	Safarova Halovat Barnoyevna
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari 91	Yusupova Maftuna Ilxomiddin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap) 97	Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli 101	Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruh salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi	

TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK PROGNOSTIKANING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI VA METODIK IMKONIYATLARI

Sharipova Shaxnoza Xasanovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Samarqand kampusi
Pedagogika kafedrası dotsenti (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari hamda uning metodik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Pedagogik prognostikaning ta'lim jarayonlarini oldindan belgilash, rejalashtirish va samarali boshqarishdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, prognozlash jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy metodlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari va amaliy qo'llanish mexanizmlari yoritiladi. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida prognostik yondashuvlarning ta'lim sifati va samaradorligini oshirishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari pedagogik prognostikaning ta'lim tizimini barqaror rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy vosita ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik prognostika, nazariy-metodologik asoslar, prognozlash metodlari, ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini prognozlash, ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari, innovatsion yondashuvlar, ta'lim samaradorligi, boshqaruv mexanizmlari, metodik imkoniyatlar.

Abstract: This article presents a scientific analysis of the theoretical and methodological foundations of pedagogical prognostics and its methodological potential in developing the education system. The role of pedagogical prognostics in forecasting, planning, and effectively managing educational processes is substantiated. Modern forecasting methods, their specific features, and mechanisms of practical application are discussed. Particular attention is paid to the significance of prognostic approaches in the modernization of education and their contribution to improving educational quality and effectiveness. The findings demonstrate that pedagogical prognostics is an important scientific and practical instrument for the sustainable development of the education system.

Key words: pedagogical prognostics, methodological approaches, forecasting methods, education system, educational development, innovative approaches, educational effectiveness, pedagogical analysis, forecasting technologies, methodology.

Аннотация: В статье представлен научный анализ теоретико-методологических основ педагогической прогностики и её методических возможностей в развитии системы образования. Обоснована роль педагогической прогностики в прогнозировании, планировании и эффективном управлении образовательными процессами. Освещены современные методы прогнозирования, их особенности и механизмы практического применения. Особое внимание уделено значению прогностических подходов в условиях модернизации системы образования и их влиянию на повышение качества и эффективности обучения. Результаты исследования показывают, что педагогическая прогностика является важным научно-практическим инструментом устойчивого развития образовательной системы.

Ключевые слова: педагогическая прогностика, методологические подходы, методы прогнозирования, система образования, развитие образования, инновационные подходы, эффективность образования, педагогический анализ, технологии прогнозирования, методология.

KIRISH

Ilmiy prognozlash metodlari pedagogik jarayonlarning kelajakdagi rivojlanishini oldindan aniqlashda eng ishonchli ilmiy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu metodlar pedagogik hodisa va jarayonlarni subyektiv taxminlar asosida emas, balki obyektiv ma'lumotlar, statistik ko'rsatkichlar hamda pedagogik qonuniyatlarga tayangan holda bashorat qilish imkonini beradi. Pedagogika fanida ilmiy prognozlash ta'lim sifatini oshirish, o'quv-tarbiya jarayonini samarali boshqarish hamda pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi [5, 76].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik prognostika ta'lim tizimini ilmiy asosda rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini rejalashtirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim metodologik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda pedagogik prognozlashning nazariy asoslari, ta'lim sifati monitoringi, pedagogik modellash-tirish hamda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi keng yoritilgan.

J. Hattie ta'lim natijalarini tahlil qilish va baholash orqali ta'lim samaradorligini oshirishning ilmiy asosla-rini ishlab chiqqan bo'lsa, P. Black va D. Wiliam formatif baholash hamda pedagogik monitoringning o'quv jarayonini prognozlashdagi ahamiyatini asoslab bergan. P. Mishra va M. J. Koehler esa zamonaviy ta'limda texnologik, pedagogik va mazmuniy bilimlarning integratsiyasini yoritib, prognozlash jarayonida innovatsion yondashuvlarning muhimligini ko'rsatgan.

Shuningdek, L. S. Vygotskiy, J. Bruner va J. Deweyning ilmiy qarashlarida ta'lim jarayonining rivojlanish qonuniyatlari, shaxs rivojlanishi hamda pedagogik faoliyatni ilmiy asosda tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Mazkur nazariy yondashuvlar pedagogik prognostikaning metodologik asoslarini shakllantirishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Biroq mavjud tadqiqotlarda pedagogik prognostikaning ta'lim tizimini strategik rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlari va prognozlash metodlarining kompleks qo'llanilishiga oid masalalar yetarli darajada tizimlashti-rilmagan. Shu sababli ushbu tadqiqotda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari hamda uning ta'lim tizimini rivojlantirishdagi metodik imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik amaliyotda ilmiy prognozlash metodlari ko'pincha statistik tahlil, pedagogik monitoring va peda-gogik modellashtirish metodlari bilan uzviy bog'liq holda qo'llaniladi. Statistik tahlil orqali ta'lim jarayoniga oid miqdoriy ma'lumotlar, talabalar reyting natijalari, fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari, pedagogik amaliyot baholari, davomat, mustaqil ishlarni bajarish darajasi tizimli ravishda tahlil qilinadi. Ushbu ko'rsatkichlarning bir necha o'quv yillari davomida o'zgarish dinamikasi aniqlanib, ta'lim natijalaridagi barqaror yoki salbiy tendensi-yalar aniqlanadi [7, 12].

Masalan, pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarning "Pedagogika nazariyasi" fani bo'yicha 3-4 yil davomida olingan reyting natijalari tahlil qilinsa, ayrim yillarda bilim sifati oshib borayotgani, ayrim yillarda esa pasayish kuzatilishi mumkin. Ayniqsa, pedagogik amaliyot baholarining pasayishi talabalarning nazariy bilimlarni real ta'lim jarayoniga tatbiq etishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ko'rsatadi. Ilmiy prog-nozlash yordamida, agar mavjud sharoitlar o'zgarmasa, kelgusi o'quv yillarida ham ushbu holat saqlanib qolishi bashorat qilinadi. Natijada o'quv rejasiga qo'shimcha amaliy mashg'ulotlar kiritish, metodik seminarlar tashkil etish zarurati asoslab beriladi.

Pedagogik monitoring ilmiy prognozlashning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim jarayonining holatini muntazam va uzluksiz kuzatishga imkon beradi. Monitoring natijalari pedagogik jarayondagi ijobiy yoki salbiy o'zgarishlarni erta aniqlash imkonini yaratadi. Masalan, birinchi kurs talabalari bilan o'tkazilgan kirish diagnosti-kasi ularning boshlang'ich tayyorgarlik darajasini ko'rsatadi. Agar monitoring jarayonida talabalarning faolligi va o'zlashtirish darajasi bosqichma-bosqich oshib borayotgan bo'lsa, yakuniy nazorat natijalarining ijobiy bo'lishi prognoz qilinadi. Aksincha, monitoring davomida sustlik aniqlansa, ta'lim jarayoniga o'z vaqtida tuzatishlar kiritish imkoniyati paydo bo'ladi [8, 15].

Ilmiy prognozlashda pedagogik modellashtirish metodi alohida ahamiyat kasb etadi. Modellashtirish peda-gogik jarayonning soddalashtirilgan, ammo mazmunan muhim tomonlarini aks ettiruvchi modelini yaratish orqali turli rivojlanish ssenariylarini oldindan baholash imkonini beradi. Masalan, pedagogika yo'nalishida kredit-modul tizimi joriy etilganda, modellashtirish orqali talabalarning mustaqil ta'limga ajratilgan vaqti, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro aloqalar hamda baholash mexanizmlarining ta'lim natijalariga ta'siri prognoz qilinadi. Agar model natijalari mustaqil ta'lim ulushining ortishi bilan bilim sifati pasayishini ko'rsatsa, qo'shimcha nazorat va maslahat mexanizmlari joriy etilishi rejalashtiriladi [3, 31].

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy prognozlash metodlari pedagogik qarorlar qabul qilishda ham muhim asos bo'lib xizmat qiladi. O'quv reja va dasturlarni yangilash, yangi fanlarni joriy etish yoki pedagogik texnologiyalarni o'zgartirishdan oldin prog-nozlash natijalari tahlil qilinadi. Masalan, "Raqamli pedagogika" yoki "Inklyuziv ta'lim asoslari" fanlarini peda-gogika yo'nalishiga kiritishdan avval, talabalarning ehtiyojlari, o'qituvchilarning tayyorgarligi va moddiy-texnik baza holati baholanadi hamda ushbu fanlarning ta'lim sifatiga ta'siri ilmiy prognoz asosida aniqlanadi [1, 1025].



1-jadval: **Pedagogikada ilmiy prognozlash metodlarining tavsifi**

Metod nomi	Qo'llanilish sohasi	Asosiy ma'lumot manbai	Prognoz natijasi
Statistik tahlil	Ta'lim natijalari	Reyting, baholar, testlar	Bilim sifatining istiqboli
Pedagogik monitoring	O'quv jarayoni	Davomat, faollik, topshiriqlar	Rivojlanish dinamikasi
Pedagogik modellash	Ta'lim tizimi	O'quv reja, yuklama	Rivojlanish ssenariylari
Diagnostik tahlil	Talaba shaxsi	Kirish/yakuniy nazorat	Individual rivojlanish

Demak, ilmiy prognozlash metodlari pedagogik jarayonning turli jihatlarini qamrab olib, ularni kompleks baholash imkonini beradi.

Pedagogik ilmiy prognozlash sxemasi pedagogik jarayon to'g'risidagi boshlang'ich empirik ma'lumotlarni yig'ishdan boshlanadi. Boshlang'ich ma'lumotlar diagnostika va monitoring natijalari asosida shakllantiriladi. Diagnostika orqali ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalari darajasi aniqlansa, monitoring yordamida ushbu ko'rsatkichlarning vaqt davomida o'zgarish dinamikasi kuzatib boriladi. Aynan shu bosqich prognozlashning ilmiy asoslanganligini ta'minlovchi muhim poydevor hisoblanadi [9, 34].

Keyingi bosqichda to'plangan ma'lumotlar statistik va sifat jihatdan tahlil qilinadi. Statistik tahlil miqdoriy ko'rsatkichlarning o'sish yoki pasayish dinamikasini aniqlashga xizmat qilsa, sifat tahlili pedagogik jarayonning mazmuniy jihatlarini, o'quvchilarning motivatsiyasi, faolligi va o'qitish metodlarining samaradorligini baholash imkonini beradi. Ushbu tahlillar natijasida ta'lim jarayonida mavjud bo'lgan barqaror yoki beqaror holatlar aniqlanadi.

Statistik va sifat tahlili natijalariga asoslanib, pedagogik jarayondagi rivojlanish tendensiyalari aniqlanadi. Tendensiyalarni aniqlash pedagogik hodisalarning tasodifiy emas, balki ma'lum qonuniyatlar asosida rivojlanayotganini ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarining izchil oshib borishi yoki, aksincha, amaliy faoliyatda qiyinchiliklar kuchayib borishi aniq tendensiya sifatida baholanadi.

Keyingi bosqichda aniqlangan tendensiyalar asosida pedagogik model yaratiladi. Pedagogik model real ta'lim jarayonining soddalashtirilgan, ammo mazmunan muhim jihatlarini o'zida aks ettiradi. Ushbu model orqali pedagogik tizimning turli rivojlanish variantlari nazariy jihatdan sinovdan o'tkaziladi. Model yaratish bosqichi prognozlash jarayonining eng muhim ilmiy bosqichlaridan biri bo'lib, u pedagogik qarorlarning puxta asoslanishini ta'minlaydi [6, 19].

Pedagogik modelga tayangan holda rivojlanish ssenariylari ishlab chiqiladi. Ssenariylar pedagogik jarayonning optimistik, real va riskli variantlarini o'z ichiga olishi mumkin. Masalan, agar qo'shimcha metodik yordam ko'rsatilsa - ijobiy ssenariy, mavjud sharoit saqlanib qolsa - real ssenariy, muammolar e'tibordan chetda qolsa - salbiy ssenariy shakllantiriladi. Bu bosqich pedagogik jarayonni boshqarishda muqobil variantlarni oldindan ko'rib chiqish imkonini beradi.

Yakuniy bosqichda prognoz natijalariga asoslangan pedagogik qarorlar qabul qilinadi. Ushbu qarorlar o'quv reja va dasturlarni takomillashtirish, pedagogik texnologiyalarni yangilash, qo'shimcha resurslar ajratish yoki pedagogik yondashuvlarni o'zgartirish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Natijada prognozlash pedagogik faoliyatni faqat tavsiflovchi emas, balki boshqaruvchi vositaga aylantiradi.

Ushbu sxema pedagogik ilmiy prognozlashning bosqichma-bosqich, uzviy va tizimli xarakterga ega ekanini ko'rsatadi hamda pedagogik jarayonlarni ilmiy asosda rejalashtirish va boshqarish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogikada qo'llaniladigan ilmiy prognozlash metodlari ta'lim jarayonini ilmiy asosda boshqarish, mavjud va kutilayotgan muammolarni oldindan aniqlash hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda muhim metodologik vosita hisoblanadi. Ushbu metodlardan izchil va maqsadli foydalanish pedagogika ta'limining sifatini oshirish, ta'lim natijalarining barqarorligini ta'minlash va pedagogik faoliyat samaradorligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Umumilmiy metodlar pedagogik prognostikaning mantiqiy va nazariy asosini tashkil etib, pedagogik hodisa va jarayonlarni ilmiy bilishning universal yo'llarini ta'minlaydi. Ushbu metodlar pedagogik prognozlashda hodisalarni tasodifiy baholashdan voz kechib, ularni sabab-oqibat bog'liqligi, tizimlilik, izchillik va mantiqiy asoslanganlik nuqtai nazaridan o'rganish imkonini beradi. Natijada pedagogik prognozlar subyektiv fikrlarga emas, balki ilmiy tahlilga asoslanadi [2, 22].

Pedagogik prognozlashda umumilmiy metodlardan foydalanish, avvalo, pedagogik jarayonning murakkab va ko'p omilli tabiatini hisobga olish imkonini yaratadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida natijaga ta'sir etuvchi omillar soni ko'p bo'lgani sababli, ularni alohida va yaxlit holda tahlil qilish zarur bo'ladi. Umumilmiy metodlar aynan shu vazifani bajarib, pedagogik prognozlarning ishonchiligi va aniqligini oshiradi.

Pedagogik prognozlashda eng ko'p qo'llaniladigan umumilmiy metodlar qatoriga tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, umumlashtirish hamda analogiya metodlari kiradi. Ushbu metodlar pedagogik



jarayonni chuqur anglash, uning hozirgi holatini to'g'ri baholash va kelajakdagi rivojlanishini bashorat qilish imkonini beradi ^[4, 45].

Tahlil va sintez metodlari pedagogik prognozlashning asosiy mantiqiy vositalaridan biri hisoblanadi. Tahlil metodi pedagogik hodisani alohida tarkibiy qismlarga ajratib o'rganishga xizmat qiladi. Masalan, tarbiyaviy ishlar samaradorligini prognozlash jarayonida, avvalo, alohida omillar - oila muhiti, sinf jamoasining ijtimoiy-psixologik holati, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlar, tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni va ularni o'tkazish shakllari alohida-alohida tahlil qilinadi. Har bir omilning tarbiyaviy natijaga ta'sir darajasi aniqlanadi ^[3, 28].

Sintez metodi esa ushbu omillarni yagona tizim sifatida birlashtirib, ularning umumiy ta'sirini baholash imkonini beradi. Masalan, agar oila muhiti ijobiy bo'lsa, biroq sinf jamoasida nizolar mavjud bo'lsa, sintez natijasida tarbiyaviy ishlarining kutilgan darajada samarali bo'lmashligi prognoz qilinadi. Shu asosda sinf jamoasini mustahkamlashga qaratilgan tarbiyaviy choralar oldindan rejalashtiriladi.

Induksiya va deduksiya metodlari pedagogik prognozlashda umumiy va xususiy bilimlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlashga xizmat qiladi. Induksiya metodi orqali alohida pedagogik holatlar asosida umumiy xulosalar chiqariladi. Masalan, bir nechta sinflarda o'tkazilgan kuzatuvlar natijasida tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etgan o'quvchilarning ijtimoiy faolligi oshgani aniqlansa, ushbu xususiy holatlardan kelib chiqib, tarbiyaviy faoliyatning umumiy samaradorligi haqida xulosa chiqariladi ^[2, 57].

Deduksiya metodi esa umumiy pedagogik qonuniyatlardan kelib chiqib, aniq pedagogik vaziyatlarning rivojlanishini bashorat qilish imkonini beradi. Masalan, "o'quvchilarning jamoaviy faoliyatga jalb etilishi ularning ijtimoiylashuvini kuchaytiradi", degan umumiy pedagogik qoida asosida ma'lum bir sinfda guruhli va jamoaviy ishlardan foydalanish natijasida ijtimoiy muhit yaxshilanishi prognoz qilinadi. Bu esa pedagogik qarorlarni oldindan asoslashga xizmat qiladi.

Umumilmiy metodlardan biri bo'lgan taqqoslash metodi pedagogik jarayonlarni turli sharoitlarda solishtirish orqali ularning rivojlanish istiqbollarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, shahardagi va qishloq hududidagi maktablarda olib borilgan tarbiyaviy ishlar natijalari taqqoslanib, qaysi sharoitda qaysi metodlar samaraliroq ekani aniqlanadi. Ushbu taqqoslash natijalari asosida boshqa ta'lim muassasalarida ham moslashtirilgan tarbiyaviy modelni joriy etish imkoniyati prognoz qilinadi ^[11, 63].

Umumlashtirish va analogiya metodlari ham pedagogik prognozlashda muhim o'rin tutadi. Umumlashtirish metodi orqali alohida pedagogik faktlar va holatlar asosida yagona xulosa shakllantiriladi. Masalan, turli fan o'qituvchilari faoliyatini tahlil qilish natijasida samarali pedagogik yondashuvlarning umumiy xususiyatlari aniqlanadi va kelgusida boshqa o'qituvchilar faoliyatida ham shu yondashuvlar samarali bo'lishi prognoz qilinadi ^[10, 27].

Analogiya metodi esa o'xshash pedagogik vaziyatlar asosida kelajakdagi ehtimoliy natijalarni oldindan baholash imkonini beradi. Masalan, bir maktabda muvaffaqiyatli joriy etilgan tarbiyaviy loyiha boshqa maktab sharoitida ham ijobiy natija berishi mumkinligi analogiya asosida bashorat qilinadi. Biroq bu metoddan foydalanishda pedagogik sharoitlarning o'xshash va farqli jihatlarini hisobga olish zarur, aks holda prognoz xatolikka olib kelishi mumkin ^[4, 61].

2-jadval: Umumilmiy metodlarning pedagogik prognozlashdagi o'rni

Metod nomi	Pedagogik vazifasi	Prognozlashdagi ahamiyati
Tahlil	Hodisani tarkibiy qismlarga ajratish	Muammo manbalarini aniqlash
Sintez	Tarkibiy qismlarni birlashtirish	Yaxlit prognoz ishlab chiqish
Induksiya	Xususiy holatlardan umumiy xulosa	Tendensiyalarni aniqlash
Deduksiya	Umumiy qonuniyatlardan xulosa chiqarish	Aniq vaziyatni bashorat qilish
Taqqoslash	Turli sharoitlarni solishtirish	Eng samarali modelni tanlash

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, umumilmiy metodlar pedagogik prognozlash jarayonida bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi va pedagogik qarorlarning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogikada prognozlashning umumilmiy metodlari pedagogik hodisa va jarayonlarni chuqur tahlil qilish, ularning ichki bog'liqligini aniqlash va kelajakdagi rivojlanishini asosli tarzda bashorat qilish imkonini beradi. Ushbu metodlardan maqsadli va tizimli foydalanish pedagogik prognostikaning ilmiy darajasini oshiradi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. - 2006. - Vol. 108(6). - P. 1017-1054.
2. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
3. Bruner J. S. Toward a Theory of Instruction. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1966.
4. Dewey J. Experience and Education. - New York: Macmillan, 1938.
5. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. - 4th ed. - Maidenhead: Open University Press, 2011.
6. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. London: Routledge, 2009.
7. Black P., Wiliam D. Assessment and classroom learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. - 1998. - Vol. 5(1). - P. 7-74.
8. Black P., Wiliam D. Developing the Theory of Formative Assessment // Educational Assessment, Evaluation and Accountability. 2009. Vol. 21(1). P. 5-31.
9. AERA, APA, NCME. Standards for Educational and Psychological Testing. - Washington, DC: AERA, 2014.
10. Allen D. W., Ryan K. A. Microteaching. - Reading, MA: Addison-Wesley, 1969.
11. Johnson D. W., Johnson R. T. Joining Together: Group Theory and Group Skills. - 11th ed. - Boston: Pearson, 2013.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.